

## **O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA AUTENTIK MATERIALLARNI TANLASH TAMOYILLARI**

**Gulshan Asadovna ASILOVA**

Pedagogika fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

## **ПРИНЦИПЫ ОТБОРА АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ**

**Гулшан Асадовна АСИЛОВА**

Доктор педагогических наук, профессор

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы  
имени Алишера Навои  
Ташкент, Узбекистан

## **PRINCIPLES OF SELECTION OF AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE**

**Gulshan ASILOVA**

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature  
Tashkent, Uzbekistan [gulshanasilova@gmail.com](mailto:gulshanasilova@gmail.com)

UDC (УО‘К, УДК): 372.881.1

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Asilova G.A. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 172-185.

<https://doi.org/10.36078/1703970114>

**Received:** October 10, 2023

**Accepted:** December 17, 2023

**Published:** December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** O‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish dunyoda yildan yilga ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Jahonda keng tarqalgan tillardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasi hali boy tajribaga ega emas. Boshqa til vakillariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni va undagi muammolar tadqiqotchilar tomonidan hali yaxshi o‘rganilmagan soha hisoblanadi. O‘zbek tilidan xorijliklar uchun shu kunga qadar yaratilgan o‘quv adabiyotlari hajmini ham bugun yetarli deb bo‘lmaydi. Xususan, o‘zbek tilini ingliz, nemis, xitoy, koreys, rus zabonli o‘rganuvchilarga o‘qitish tajribasi natijasida yuzaga kelgan bir nechta o‘quv qo‘llanmalar va elektron majmualar mavjud. Biroq ularda berilgan o‘quv-didaktik materiallar jonli tilga qay darajada moslashtirilganligi va ularning o‘zbek tilini o‘rganuvchilar nutqini o‘stirishdagi samaradorligi tadqiq etilmagan. Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri ta’limda autentik materiallardan foydalanish bilan bog‘liq muammodir. Bu borada dunyoda keng tarqalgan tillarning metodikasida boy tajriba to‘plangan. Ushbu soha mutaxassislarini asosan autentik materiallarni topish va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash masalalari o‘ylantiradi. Maqola o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda autentik matnlarni tanlash, til o‘rganuvchilar ehtiyojiga moslashtirish va ulardan ta’lim jarayonida maqsadli foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Unda autentik materiallar bilan ishlashda ularning qaysi jihatlariga e’tibor qaratish kerakligi, ularning qaysi turlari o‘zbekcha nutqni o‘stirishda samara berishi tahlilga tortilgan.

O'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklar uchun autentik materiallarni tanlashga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili; xorijiy til; nutq o'stirish; autentik material; autentik matn; lingvomamlakatshunoslik; realiyalar.

**Аннотация.** Из года в год наблюдается повышение интереса к изучению узбекского языка во всем мире. В отличие от широко распространенных в мире языков, методика обучения узбекскому языку как иностранному еще не имеет богатого опыта. Процесс преподавания узбекского языка носителям других языков и проблемы, связанные с этой методикой, являются в настоящее время малоизученными сферами в плане исследования. Недостаточным является и объем учебной литературы по узбекскому языку для иностранцев, созданной до сегодняшнего дня. В частности, существует несколько учебных пособий и электронных обучающих комплексов, возникших в результате обучения узбекскому языку носителей английского, немецкого, китайского, корейского, русского языков. Однако учебно-дидактический материал, отраженный в них, недостаточно исследован в плане его соответствия реальной языковой среде и эффективности в развитии речи на узбекском языке. В настоящее время одной из актуальных вопросов методики обучения иностранным языкам является проблема, связанная с использованием в обучении аутентичных материалов. В этой сфере накоплен богатый опыт в методике широко распространенных в мире языков. Специалистов данной сферы в основном интересуют вопросы нахождения и эффективного применения в процессе обучения аутентичных материалов. Данная статья посвящена проблемам отбора аутентичных материалов на узбекском языке, их адаптации в соответствии с языковыми потребностями обучающихся и целевого применения в процессе обучения. В ней проведен анализ особенностей аутентичных материалов, требующих внимания при работе с ними, а также их видов, способствующих эффективному развитию речи на узбекском языке. Даны методические рекомендации по отбору аутентичных материалов для иностранцев, изучающих узбекский язык.

**Ключевые слова:** иностранный язык; узбекский язык; развитие речи; аутентичный материал; аутентичный текст; лингвострановедение; реалии.

**Abstract.** From year to year, interest in learning the Uzbek language has grown around the world. Unlike languages widely spoken in the world, the methodology of teaching Uzbek as a foreign language does not yet have rich experience. The process of teaching Uzbek to speakers of other languages and the problems arising in the process are not yet well studied by researchers. Educational literature on the Uzbek language created so far for foreigners cannot be considered sufficient as well. Particularly, there are several study guides and electronic complexes that have been created as a result of the experience of teaching Uzbek to English, German, Chinese, Korean, Russian learners. However, to what extent the teaching materials given in them are close to the living language and their effectiveness in developing speaking skills in the Uzbek

language has not been studied properly. One of the actual problems in the methodology of teaching foreign languages is the problem associated with the use of authentic materials in the process of education. In this regard, experience has been accumulated from the methodologies of languages that are widely spoken across the world. Experts in this field are mainly concerned with the choice of authentic materials and their effective application in the educational process. This article is devoted to the problems of selecting authentic materials in the Uzbek language, their adaptation in accordance with the language needs of students and their intended use in the teaching process. The article analyzes the features of authentic materials that require attention when working with them, as well as their types that contribute to the effective development of speech in the Uzbek language. Methodological recommendations on the selection of authentic materials for foreign students studying Uzbek are given accordingly.

**Keywords:** foreign language; the Uzbek language; development of speaking skills; authentic material; authentic text; linguistic and regional studies; language realities.

**Kirish.** Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida matn tilni o'rganishning muhim birligi bo'lib hisoblanadi. Matn orqali til o'rganuvchi o'zga madaniyatni qabul qilishga yordam beradigan bilimlarni oladi, o'rganilayotgan til mamlakatining geografik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tuzilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu esa lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu kompetensiya shaxsning o'zga til madaniyatiga kirishib ketishini ta'minlashga xizmat qiladi. Lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasi deb "tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy an'analari, urf-odatlarini, realiyalarini bilish, til birliklaridan til egalari oladigan mamlakatshunoslikka oid axborotni o'zga bilish hamda undan to'laqonli muloqotga erishishda foydalanish"ga aytiladi (3, 128). Shuningdek, lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasi shaxsda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, tolerantlikni tarbiyalash, uni tili o'rganilayotgan mamlakatining axloqiy-madaniy me'yorlaridan xabardor qilishga ko'maklashadi.

Mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlardan til ta'limida foydalanishning muhimligi yana shundaki, u xorijiy tilni o'rganishga motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa jonli til muhiti bo'lmagan sharoitda juda zarur. O'zbek tilida "lingvomamlakatshunoslik" tushunchasi asosan xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda uchraydi. Xususan, ularda "lingvoo'lkashunoslik" (2, 120) va "mamlakatshunoslik" (14, 6) terminlarining qo'llanganini ko'rish mumkin. O'zbek tilini xorijliklarga o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tilni o'rganuvchilarda uni til sohiblaridek his qila olish layoqatini shakllantirish uchun milliy realiyalarni o'rgatish zarur. Biroq bu borada shunchaki til birliklarini o'zlashtirishning o'zi yetarli emas. Bu yerda tilning lingvokulturologik mazmunini tashkil qiluvchi tamoyillarni anglash juda muhim (5, 29).

O'zbek tilini o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanmalarda o'zbek xalqining tarixi, milliyligi, urf-odatlarini, an'analari aks etsa-da,

lingvomamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotlar olib borilmagan.

Xorijiy til mashg'ulotlarida lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda shu til egalari madaniyatiga xos bo'lgan asl hayotiy vaziyatlarni yaratish, ya'ni muloqot muammolariga doir materialni tanlash, haqiqiy muloqot modelini tuzish tamoyili muhim o'rin tutadi. Aksariyat o'quv adabiyotlarida ushbu tilni yangi til sifatida o'rganayotganlarga mo'ljallangan matnlar beriladi. Ammo metodika rivojlanishi va til o'qitish tajribasi ortishi bilan xorijiy tildagi jonli muloqotga tayyorlashda bunday matnlarning qay darajada foydali ekanligi bahs-munozaralarga sabab bo'la boshladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalar mualliflari tomonidan tilni bilishning muayyan darajasiga mo'ljallab tuzilgan o'quv matnlarini o'zlashtirish real muloqot vaziyatida qanchalik yordam beradi, degan savol metodistlarni o'ylantiradi. Shu bois xorijiy tillar ta'limida real muloqotdan olingan autentik materiallarni topib, ulardan mashg'ulotlarda foydalanish metodlari keng qo'llanmoqda.

**Asosiy qism.** O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish sohasida, garchi autentik materiallar uchrab tursa-da, ularning tanlanishida tasodifiylik ko'proq. Xususan, autentik materiallar bilan ishlash usullari alohida ishlab chiqilmagan. Shu bois o'zbek tilini o'qitish metodikasida "autentik material", "autentik matn" tushunchalari termin sifatida qo'llanmagan.

"Autentik" so'zi qadimgi yunon tilidan (authentikos) "asl, haqiqiy" degan ma'noni anglatadi (3, 25). Ruscha-o'zbekcha lug'atning 1983-yildagi nashrida "аутентичный" so'zining tarjimasida "aslga to'g'ri, asl nusxaga mos, muvofiq; asl nusxa bilan bir xil, teng, haqiqiy" deb berilgan (13, 43). Keyingi yillarda nashr qilingan lug'atlarda esa bu so'z berilmagan (1). Shu bois ingliz tilida "authentic", turk tilida "otantik", qozoq tilida "шынайы", tojik tilida "аслӣ" deb yuritiladigan bu tushunchani biz dunyoning ko'p tillaridagi kabi "autentik" deb atashni ma'qul ko'rdik.

Til ta'limida "autentik" tushunchasi til va nutq materialining real hayotda nutqiy muloqotni amalga oshirishni ta'minlaydigan xususiyatini anglatadi. Biroq xorijiy til ta'limining zamonaviy metodikalarida mashg'ulotlarda til o'rganuvchilarga mo'ljallangan, metodistlar tomonidan maxsus yaratilgan yoki qayta ishlangan materiallar va matnlardan foydalanish mumkin deb hisoblanadi. Taniqli metodist olim J. Harmer til o'rganuvchilar o'zlashtira oladigan autentik materiallarni topish ta'limning muhim vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Agar buning imkoni bo'lmasa, turli qismlardan yig'ilgan materiallardan ko'ra moslashtirilgan (adaptatsiya qilingan) materiallarni qo'llagan ma'qul deb hisoblaydi (15, 81).

Autentik material, u xoh matn bo'lsin, xoh videomaterial yoki audiomaterial bo'lsin, tilni o'rgatish maqsadida yaratilgan bo'lmaydi. Shu bois autentik matn deganda til egalari uchun yozilgan va ta'limiy maqsadlarga qaratilmagan matn tushuniladi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda autentik materiallardan foydalanish samarali, biroq metodik tajriba talab qilinadigan usul hisoblanadi. Ma'lumki, til

o'rganuvchilarning tilni bilish darajasi qanchalik past bo'lsa, autentik materialni mashg'ulotlarga kiritish va nutqiy vaziyat yaratish shunchalik murakkab kechadi. Lekin faqat noautentik, ya'ni "sun'iy" matnlardan foydalanish ham o'rganuvchilarni til muhitidan uzoqlashtiradi, bunday matnlar yordamida real muloqot vaziyatini yaratish ehtimoli juda past. Noautentik matnlar boshqachasiga "moslashtirilgan" materiallar deyilib, aksariyat hollarda ular yordamida o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalari ustida ishlash jarayonida til o'rganuvchiga kerak bo'lmagan, real, jonli tilda qo'llanmaydigan mavzular, leksik birliklarni o'zlashtirish talab qilinadi. Ularning ham til ta'limida o'z o'rnini bor. Demak, tilni o'rganishda autentik matnlar bilan bir qatorda noautentik matnlar ham ta'lim maqsadiga qarab qo'llanishi kerak. Biroq ularning barchasi til o'rganuvchilarning nutqiy kompetensiyasiga mos ravishda tanlangan bo'lishi, ularga o'rganilayotgan tilning tushunarli va sodda tuzilgan modellarini og'zaki va yozma ravishda yetkazib berishi muhim.

Amaliy lingvistika va til ta'limi sohasida taniqli olim G. Uidovson fanga "haqiqiy material" va "pedagogik jihatdan haqiqiy material" tushunchalarini kiritgan hamda ular orasidagi farqni ko'rsatib bergan. Uning fikriga ko'ra, til egalari uchun yaratilgan va hech qanday o'zgartirishlar kiritilmagan materiallar haqiqiy, asl materiallar hisoblanadi. Pedagogik haqiqiy materiallar esa, tilni xorijiy til sifatida o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan, shu bois mashg'ulotlarda foydalanish uchun kundalik, aniq ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'ladi. Uidovson mashg'ulotda foydalaniladigan materiallarni tanlashda ularni tushunish va o'zlashtirish osonroq bo'lishi uchun bir qancha shartlarga amal qilgan holda soddalashtirish zarur deb hisoblaydi. Ushbu material asl, haqiqiyga o'xshagan va real manbalardan olingan bo'lishi kerak (16, 67).

"Autentik material" tushunchasining ma'nosi keng bo'lib, bu termin turli manbalardan olingan materiallarni anglatadi. Shu bois autentik materiallarni tasniflash masalasi metodikada muhim ahamiyatga ega. Rossiyalik tadqiqotchilar A.V. Perunova va M.V. Perunov autentik materiallarni quyidagicha tasniflaydilar:

1. Autentik audiovizual materiallar (telelavhalar, reportajlar, hujjatli filmlar, reklama).
2. Autentik ko'rgazmali materiallar (slydlar, fotosuratlar, kartinalar, yo'l belgilari, jurnallardagi rasmlar, otkritkalar, rasmlar kitoblar).
3. Autentik bosma materiallar (gazeta maqolalari, ommabop materiallar, qo'shiq matnlari, restoran va kafedagi menyu, sayyohlar uchun axborot broshuralari, xarid cheklari, yo'l chiptalari, teatr, kino, konsert chiptalari, vizitkalar, komikslar, jamoat transportining reys jadvallari va b.).
4. Realizmalar (tangalar va valyuta, devor soatlari, telefonlar, qo'g'irchoqlar, marionetkalar va b.). Ulardan ta'lim jarayonida asosan ko'rgazmali vosita sifatida yoki rolli vaziyatlarda foydalaniladi (12).

Bunday tasnif metodistlarga autentik materiallarni tanlash va ulardan ta'lim jarayonida maqsadli hamda samarali foydalanishda yordam berib kelmoqda. Ushbu materiallarda til realiyalarining alohida o'rni bor. S. Vlixov va S. Florin ta'rifiga ko'ra, "realiyalar — bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti)ga xos va boshqa xalqlarga yot bo'lgan obyektlarni ataydigan so'zlar (so'z birikmalari)" (6, 55). Autentik materiallarni realiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu bois lingvomamlakatshunoslik yondashuvida asl, haqiqiy manbalarni tanlab qo'llash muhim ahamiyatga ega.

K.S. Krichevskaya autentik materiallar sirasiga badiiy, tasviriy, musiqiy asarlarning aslini, shuningdek, atrofimizda uchraydigan buyumlarni ham kiritadi. Bundan tashqari, kundalik hayotda har kuni ko'zimiz tushadigan e'lonlar, peshtaxtalar, xarid cheklari va shu kabilarni alohida guruhga ajratib, ularni pragmatik materiallar deb ataydi. Bu guruhga audio va audiovizual materiallar (radio e'lonlar va eshittirishlar, teleko'rsatuvlar) ham kiradi. Pragmatik materiallarning bu guruhi zamonaviy til namunalarini aks ettirgani bois ta'lim jarayonida foydali hisoblanadi (8, 14).

Autentik materiallarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ularda tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar aks etadi. O'qituvchi ham, til o'rganuvchilar ham har bir yangilikdan boxabar bo'ladilar. Shuningdek, autentik materialning muayyan qismini, agar ta'lim maqsadlari har xil bo'lsa, turli vaziyatlarda qo'llash mumkin, bu ularning universalligi bilan izohlanadi. Kitoblar, maqolalar, gazetalar turli matnlar va til uslublarini o'z ichiga oladi, darslikdagi o'quv materiallarida bunday xususiyatlar kam bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda o'zbek tili darsliklariga ehtiyojning ortishi bilan o'zbek tili ta'limida lingvomamlakatshunoslik yondashuviga murojaat qilish dolzarb masalaga aylandi. Chet elliklar uchun yaratilgan o'zbek tilini o'rgatuvchi qo'llanmalarining ayrimlarida bu yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, N. Azimovning "O'zbek tili. Birinchi bosqich" kitobida audio va videomateriallar bilan ishlash uchun topshiriqlar berilgan (4). Qo'llanma A1 daraja uchun tuzilgan va 16 ta mavzudan iborat. Har bir mashg'ulotning tarkibiga "Asl o'zbekcha (Uzbek Realia)" rukni kiritilgan. Ushbu rukn ostida autentik videolavhalar ilova qilingan. Videolavhalar, filmlardan parchalarni ko'rib, autentik audioyozuvlarni eshitib, ularga doir topshiriqlarni bajarish qo'llanmada ko'zda tutilgan. Masalan:

- 1) videolavhani ko'rib, berilgan satrlarni to'ldiring;
- 2) audioyozuvda eshitgan so'zlaringizni berilgan so'zlar ichidan topib belgilang;
- 3) sizga kelgan elektron xatni o'qib, unga javob yozing;
- 4) ko'rgan filmingiz qahramonlarining surati bilan ularga berilgan ta'riflarni taqqoslang va b.

Ushbu qo'llanmada suhbatlar, telefon orqali so'zlashuvlar, nutqiy mavzu bo'yicha jonli og'zaki muloqot namunalari ko'p berilgan. Shunisi e'tiborliki, ularda real, haqiqiy o'zbekcha so'zlashuv

aks ettirilgan. Xususan, ayrim mavzularda shevaga oid soʻzlar va jumlar berilganini ham koʻrish mumkin. Masalan, “Sayohat” mavzusida Toshkentdan ijaraga xonadon olish jarayonining lavhasi berilgan, unda uy egasining nutqida Toshkent shevasi (“mani mahallam”, “ketvommiz”, “gaplashvotgan”, “boruvdik”, “qattan?”, “qaleysiz?” va b.) aks ettirilgan (4, 380). Bu esa til materialining autentik ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, kitobda autentik rasmlardan ham keng foydalanilgan. Mazkur qoʻllanma oʻzbek tilini xorijliklarga oʻrgatish sohasida bugungi kungacha yaratilgan oʻquv adabiyotlari ichida metodik jihatdan eng samaralisi boʻlib, ingliz zabon til oʻrganuvchilar orasida ommalashgan. U ingliz tili darsliklarining andozasi boʻyicha tuzilgan va nutqiy faoliyatning barcha zarur turlari bilan ishlash imkonini beradi.

Autentik til materiallarini tanlashda oʻzbek tilidagi videolavhalar va filmlar boy manba boʻlib xizmat qiladi. Boshqa turdagi autentik materiallardan filmlarning afzalligi shundaki, ularda tugallangan sujet mavjud boʻladi, bu sujet tomoshabinni faol boʻlishga undaydi. Bunday manbaning til oʻrganishdagi ahamiyati yuqori boʻlsa-da, filmlarning lugʻat boyligini oshirish hamda mustahkamlashdagi taʼsirini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar juda kam. Bu borada filmlarda subtitrlarning berilishi ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, subtitrlarning qaysi turlari til oʻrganishda samaraliroq, degan savol metodistlar uchun dolzarb boʻlib qolmoqda.

Yuqorida turlari keltirib oʻtilgan autentik materiallarning asosiy qismini matnlar tashkil qiladi. Autentik matnlarni tasniflashdan avval autentik boʻlmagan, yaʼni anʼanaviy metodikada qoʻllanib kelgan oʻquv matnlariga toʻxtalish joiz. Noautentik matnlar deb tilni xorijiy til sifatida oʻrganayotganlar uchun maxsus yozilgan matnlarga aytiladi. Ular oʻquv jarayoniga u yoki bu grammatik mavzuni, leksik materialni mustahkamlash uchun kiritiladi. Yuqorida aytganimizdek, metodistlarni autentik boʻlmagan materiallar, ayniqsa ular jonli tildan uzoq boʻlsa, til oʻrganuvchilarning nutqiy koʻnikmalarini rivojlantirishda samara beradimi, degan savol oʻylantiradi. Bir tomondan, tilni oʻrgatishda autentik materiallar, yaʼni haqiqiy manbalardan olingan va oʻquv maqsadlariga moʻljallanmagan materiallardan foydalanish afzaldek tuyuladi. Boshqa jihatdan, bunday materiallarning samarasi pastligi shunda koʻrinadiki, ularning lingvistik shakli juda murakkab boʻlib, taʼlimning aniq vazifalari va shartlariga har doim ham javob bermaydi. Xorijiy tadqiqotlarda autentik matnlarning quyidagi guruhlarini uchratish mumkin:

— yarim autentik matnlar (semi-authentic texts), yaʼni asl manbaga asoslangan, lekin leksik va sintaktik jihatdan taʼlim dasturiga moslashtirilgan matnlar;

— qisman tahrirlangan autentik matnlar (roughly-tuned authentic texts), yaʼni grammatik materialning darajasi til oʻrganuvchilarning darajasidan birmuncha yuqoriroq boʻlgan matnlar;

— autentik sifatlarga ega boʻlgan matnlar (authentic-looking texts);

— o‘quv-autentik matnlar (learner authentic texts) (9, 15).

Yuqorida nomlari aytib o‘tilgan matnlarning oxirgi guruhi tadqiqotchilar e‘tiborini ko‘proq tortadi. Metodikada o‘quv-autentik (autentik elementlari bor va maktabda xorijiy tilni o‘qitishga mo‘ljallangan) matnlar ko‘p qo‘llanadi. Ularga o‘quvchilarning til bilish darajasini aniqlash maqsadida autentik matnlardan foydalangan holda moslashtirib tuzilgan matnlarni misol qilish mumkin. Bunday matnlarni mazmun jihatiga ko‘ra Y.V. Nosonovich va R.P. Milrud 7 xil bo‘limga ajratganlar:

1) *kulturologik matnlar* o‘zga madaniyat xususiyatlari, ushbu madaniyat va til egalarining urf-odatlarini hamda turmush tarziga xos jihatlar haqida tasavvur hosil qiladi;

2) *axborot matnlari* til o‘rganuvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlariga mos axborotni yetkazib beradi;

3) *vaziyatli matnlar* til o‘rganuvchilarga o‘quv ko‘rgazmasi sifatida taqdim etiladigan vaziyatning tabiiyligi hamda uni muhokama qilishni taqozo qiladi;

4) *milliy mentalitetga xos matnlar* o‘rganilayotgan tildagi u yoki bu jumlar, nutq birliklarining suhbatda va muloqotda o‘rinli yoki o‘rinsiz qo‘llanganini tushuntirishga xizmat qiladi;

5) *tez tushuniladigan (reaktiv) o‘quv matnlarini* ishlab chiqishda ularning til o‘rganuvchilarda xuddi shunday autentik nutq, fikrlash va hissiy reaksiyani vujudga keltirish xususiyatini hisobga olish talab qilinadi;

6) *autentik shakldagi matnlar* — til o‘rganuvchilarning e‘tiborini tortish va matnning kommunikativ vazifasini hamda voqelikka aloqadorligini anglashni osonlashtirish uchun xizmat qiladi;

7) *autentik o‘quv topshiriqlari* matnga oid topshiriqlar bo‘lib, ular til o‘rganuvchilarning matn bilan o‘zaro aloqasini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, topshiriqlar o‘quv vaziyatidan tashqarida sodir bo‘ladigan manbalar bilan ishlashga asoslangan bo‘lishi kerak (11, 20).

Ko‘rinadiki, autentiklik xususiyati bunday matnlarning turli o‘quv maqsadlari va vazifalarini birlashtirib turadi. Demak, xorijiy til ta‘limida ushbu tushuncha autentiklikka xos bo‘lgan shartlar va turlar yig‘indisini anglatadi. Bunda o‘quv mashg‘ulotining qismlari va ayrim jihatlari — matn, o‘quv topshirig‘i, o‘quv aloqalari va o‘quv sharoiti autentik matnni noautentik matndan ajratishga yordam beradigan muayyan mezonlarga javob berishi kerak.

G.I. Voronina tomonidan autentik matnlarning ikki bo‘limga ajratilishi metodik jihatdan e‘tiborga loyiq. Birinchi bo‘limga tadqiqotchi muayyan vazifani bajaradigan matnlar, masalan, yo‘l ko‘rsatkichlari, belgilar, afishalar, sxemalar, diagrammalar, reklama propektlari va boshqalarni kiritgan. Ular yo‘riqnoma berish va tushuntirish vazifasini bajaradi hamda ta‘limda samarali hisoblanadi. Bunday matnlarni tadqiqotchi til realiyalari sirasiga kiritadi va ta‘lim jarayonining mustaqil elementi sifatida ular til o‘rganuvchilarni til egalari bilan nutqiy aloqaga kirishishga undaydi, deb ta‘kidlaydi. Ikkinchi bo‘limga muallif axborot matnlari, xususan, yangiliklar,



maqolalar, intervyular, so‘rovnomalar, e‘lonlar, izohlar, reportajlar va shu kabilarni kiritgan. Ularda, odatda, muntazam ravishda yangilanib turadigan ma‘lumotlar va madaniy sohaga oid faktlar aks etadi. Bunday turdagi matnlar maishiy muloqot uchun zarur til birliklarini o‘z ichiga oladi (7, 24).

Yuqorida autentik matnlarning mazmuni, shakli va noautentik matnlardan farqli jihatlarini ko‘rib chiqdik. Ularning yana qaysi o‘ziga xos belgilari mavjud?

Autentik matnlarning leksikasi e‘tiborni tortadi: ularda olmoshlar, yuklamalar, hissiy bo‘yoqdor so‘zlar, modal so‘zlar, frazeologik iboralar, ayni zamonda tilda urf bo‘lgan so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Bunday matnlarning sintaksisi ham o‘zgacha: ularga qisqa va yig‘iq gaplar, tuzilishi jihatidan sintaktik bog‘langan gaplar xos. Shuningdek, autentik matnlarda to‘liqsiz gaplar yoki tugallanmagan gaplar ko‘p uchraydi, ularda asosan sodda gaplar qo‘llanadi. Misol tariqasida N. Azimova muallifligida yaratilgan o‘quv qo‘llanmadan bir mashqni keltirish mumkin. “Olma bormi? Necha pul?” deb nomlangan, o‘zbek bozorlaridagi muloqotga bag‘ishlangan mavzuda o‘quvchiga mashqda keltirilgan quyidagi jummalarni xaridor va sotuvchiga tegishlilarini 2 ustunga ajratib yozish vazifasi beriladi:

1. *Keling, arzonroqqa beraman.*
2. *Tushiring!*
3. *Narxi shu.*
4. *Juda qimmat!*
5. *Necha pul?*
6. *Yo‘q, bu juda arzon. Yana qo‘shing!*
7. *Yeb ko‘ring!*
8. *500 so‘m beraman.*
9. *Tortib bering.*
10. *Qanchadan?* (4, 222)

Ko‘ramizki, bu yerda qisqa autentik jummalarni o‘rgatish bilan xorijlik o‘quvchida haqiqiy o‘zbek bozorida o‘zbeklar qanday jumalar orqali muloqot qilishi haqida tasavvur hosil qilinadi.

Shu kabi matnlardan til ta‘limida autentik material sifatida foydalanish uchun ularning qanday ko‘rinishda berilganligi, ya‘ni dizayni muhim o‘rin tutadi. Masalan, zamonaviy darsliklarda e‘lon devorga yopishtirilgan varaq shaklida, maqola esa gazetadan kesib olingan parcha ko‘rinishida tasvirlanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan qo‘llanmaning “Kiyim-kechak” deb nomlangan mavzusidan bunga quyidagi misolni keltirish mumkin:

*“Diqqat, qidiruv!*

*Toshkent shahar, Chilonzor tumanida yashovchi Umarov Laziz qidirilmoqda. U 2006-yil 11-martda uydan chiqib ketgan. Alohida belgilari: bo‘yi 175 santimetr, sochi qora va ko‘zlari jigarrang, peshonasida 5–7 santimetrlik chandig‘i bor. O‘sha kuni jinsi shim, qora sviter kiygan. Oyog‘ida qora etik bo‘lgan. Lazizni oxirgi marta Amir Temur xiyobonida ko‘rishgan. Laziz haqida bilgan yoki uni ko‘rgan kishilarni militsiyaga murojaat qilishlarini so‘raymiz”* (4, 328).

Devorga yopishtirilgandek tasvirlangan mazkur autentik e'lonni mustaqil tarzda o'qib, uning mazmuniga oid savollarga javob berish kerak. Bunday ko'rinishdagi vazifalarda matnlarning tuzilishi, mazmuni va taqdim etish shakli til o'rganuvchining qiziqishini oshiradi, mashg'ulot davomida til muhitiga kirishga ma'lum darajada sharoit yaratadi.

E'lonlar autentik matlar uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi. Autentik matnlar yana qaysi manbalardan olinadi? O'zbek tilini xorijliklarga o'qitish uchun o'quv kontentini yaratishda autentik materiallarni asl manbadan, masalan, yangiliklar dasturlari, tele-, radioreklamalar va ko'chalardagi reklama e'lonlari, telefon orqali yuboriladigan xabarlar, do'konlar va bozorlarning peshtaxtalaridagi ma'lumotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, podkastlar yoki videoplatformalar kabi ko'plab manbalardan olish mumkin. O'qituvchi topshiriqlar yoki loyihalarni autentik materiallar asosida, o'quvchilarining til bilish darajasiga qarab ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish jarayonida autentik matnlar sifatida badiiy asarlar, badiiy filmlar, ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish ham samara beradi. Ular o'zbek tilidagi autentik matnlarning asosiy komponenti va manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda adabiy matnlarga yangicha qarash — ularni o'zbek tilidagi lingvomamlakatshunoslikka oid ma'lumotlarni aks ettiruvchi hamda o'zbek tilini o'rganish va fikrini shu tilda ifodalashga xohishni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llash zamonaviy metodik tamoyillardan biri bo'lib bormoqda. Buning e'tiborli jihati shundaki, nafaqat o'zbek tilida yaratilgan asarlar, balki boshqa tillardan o'zbek tiliga mohirona tarjima qilingan manbalar ham autentik material bo'lishi mumkin. Sababi — badiiy uslubga xos bo'lgan tasviriy vositalar, iboralar, maqollar sifatli tarjimada "o'zbekchalashtirilgan" bo'ladi. Shu bilan birga, badiiy asarlar va ulardan olingan parchalarda til darsliklarida berilmaydigan mavzular uchrashini ham ta'kidlash joiz. Masalan, odatda xorijiy tillarni o'qitishda boshlang'ich darajadan boshlab oila, o'qish, kun tartibi, sevimli mashg'ulotlar kabi mavzularda maxsus tuzilgan matnlar bilan ishlash ko'zda tutiladi. Badiiy asarlar esa ko'plab keng muhokama qilinadigan mavzularni aks ettiradi. Bundan tashqari, adabiy matnlar amaliy topshiriqlarni tuzish uchun lingvistik axborot manbayi bo'lib xizmat qiladi hamda til o'rganuvchilar uchun barcha zarur ko'nikmalar — gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozishni rivojlantirishga ko'maklashadi. Demak, adabiy matnlardan grammatik tuzilmalar va yangi leksika manbayi sifatida foydalanish mumkin. Autentik matnlar sirasiga nafaqat badiiy asarlar va ulardan olingan parchalarni, balki uslub va janr jihatidan butkul farqlanadigan ilmiy-ommabop, publitsistik, she'riy, axborot matnlarini kiritish jahon tillarini o'qitish tajribasida ko'pdan buyon qo'llanib kelmoqda.

O'qituvchi ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun matnlarni tanlashda ularning qanday xususiyatlariga tayanishi kerak? Birinchi o'rinda til o'rganuvchilarning ehtiyoji, qiziqishlari, axloqiy-

madaniy qarashlari va til bilish darajasini hisobga olish zarur. Taklif etilayotgan matn til o'rganuvchilarda qiziqish hamda kuchli ijobiy reaksiyani uyg'otishi juda muhim. Yangi, muammoli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, o'zga xalq va millat madaniyatiga olib kiradigan, his-tuyg'ularni uyg'otadigan matnlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi. Mazmunli va qiziqarli matnlar lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Albatta, taqdim etiladigan matnlar lisoniy jihatdan murakkab bo'lishi tabiiy, shu bois matn tanlashda uning tili sodda, tushunarli bo'lishini hisobga olish kerak.

A. G. Martines autentik materiallarni qo'llash til o'rganuvchilarda lingvokulturologik bilimlarni shakllantirishiga, real muloqot vaziyatlarida til ko'nikmalarini egallash va rivojlantirishga ko'maklashishiga e'tiborni qaratadi. Autentik materiallarning janr va uslublari xilma-xilligi o'quv faoliyati turlarining variativligini ta'minlaydi, deb hisoblaydi (10). Shu bilan birga, qator xorijiy tadqiqotlarda autentik materiallarning quyidagi asosiy kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan.

Autentik matnlarni tushunish jarayoni murakkab kechadi, bu madaniyatlar orasidagi farqlar bilan izohlanadi. Matnda qo'llangan til birliklarining o'quvchining til bilish darajasiga moslashtirilmaganligi, matnda berilgan ma'lumotlarning tez eskirishi materialni sinchiklab tanlash hamda u bilan ishlash jarayonini loyihalashtirishni talab qiladi.

Qator autentik materiallar, jumladan, audio va audiovizual materiallar bilan ishlashni tashkil qilishning qiyinligi bunday materiallarda turli dialektlarning qo'llanishi bilan izohlanadi.

Autentik materiallar bilan ishlash ma'lum darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi, bunga esa oddiy o'quv materiallariga nisbatan ko'proq vaqt sarflanadi.

Autentik audioyozuvlarni tinglab tushunishda turli shevalar, mahalliy so'zlashuv uslubi xususiyatlari, aksent xalaqit berishi mumkin.

Autentik materiallar, xususan, yangiliklar tezda eskirish xususiyatiga ega.

Autentik materiallarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan afzalliklari va kamchiliklari ularni tanlashda eng samarali tur va shakllarini aniqlash vazifasini qo'yadi. Masalan, o'zbek tilini o'rganuvchilarga biror badiiy asardan parcha yoki gazeta maqolasini o'qishga beraylik. Bunda, albatta, til bilish darajasi eng muhim mezon bo'lishi kerak. Ushbu materiallarni til o'rganuvchilar tushunmasliklari mumkin. Shu bilan birga, juda sodda matnlar ham ularni qoniqtirmaydi. Demak, til ta'limi jarayonlarida ham autentik, ham noautentik matnlar qo'llanishi maqsadga muvofiq. Eng muhimi — ularning barchasi tushunarli, til bilish darajasiga mos, yozma yoki og'zaki nutqning jonli modellarini aks ettirishi lozim.

**XULOSA.** Internet paydo bo'lishi va taraqqiy etishi bilan o'qituvchilarning autentik materiallarni topishlari, tanlashlari va ta'lim jarayonida qo'llashlariga keng imkoniyatlar ochildi. Turli matnlar, gazetalar, jurnallar, to'g'ridan-to'g'ri uzatiladigan

radioeshittirishlar, teleko‘rsatuvlar, videokliplar va boshqa shu kabi kontent miqdori kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Til ta‘limiga oid foydali materiallar ro‘yxati ham tobora boyimoqda. Ulardan til o‘rganuvchilar uchun samara beradiganlarini tanlashni to‘g‘ri amalga oshirish ta‘limning muvaffaqiyatini belgilaydi. O‘quvchiga Internet havolasini taqdim etib, u yoki bu material bilan shunchaki tanishish vazifasini berish autentik materialning qiymatini tushirib yuboradi. Bu materialga albatta topshiriq ilova qilinishi kerak. Ushbu topshiriq ham real muloqotga qaratilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. To‘g‘ri tanlangan autentik materiallar va ular bilan ishlashga yo‘naltirilgan vazifalar nafaqat tilni o‘rganishga qiziqishni kuchaytiradi, balki kommunikativ va badiiy kompetentlikni rivojlantiradi, til o‘rganuvchilarning lug‘at boyligini oshiradi, ularga til madaniyati haqida ma‘lumot beradi, bu esa til ta‘limining maqsadlariga erishishga ko‘maklashadi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda quyidagi talablarga javob beradigan matnlarni tanlash maqsadga muvofiq:

- o‘zbek tilidagi jonli muloqotdan olingan matnlar;
- dolzarb, ya‘ni o‘zbek tilidagi bugungi yuritilayotgan kundalik muloqot namunalari aks ettiradigan matnlar;
- odatiy, ya‘ni standart, muntazam takrorlanadigan muloqot vaziyatlarida qo‘llanadigan nutq namunalari.

Shuningdek, o‘zbek tilida bir-biridan ajralib turadigan shevalarni ham hisobga olish zarur. Jonli tilda shevalarning o‘rni juda katta. O‘zbek tilida jonli muloqotga kirishishga ko‘maklashish uchun til ta‘limida, ayniqsa og‘zaki nutqni o‘stirishda O‘zbekistonning muayyan hududida muomalada bo‘lgan asosiy shevalarni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Badiiy matnlardan o‘zbek tili ta‘limining dastlabki bosqichida o‘quv mashg‘ulotlarida hamda mustaqil o‘qish uchun qisqa hikoyalar, ertaklar, pyesalar, qo‘shiq matnlaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Shuningdek, autentik materiallar sirasiga kiradigan audiomatnlar, kliplar, podkastlar, audio formatdagi qo‘shiqlar tilning jozibadorligini his qilishga ko‘maklashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдурахимов М.М. Ўзбекча-русча ва русча-ўзбекча луғат. — Тошкент: “Фан”, 1999. — 643 б.
2. Agzamova D. Tarjimashunoslik va lingvomamlakatshunoslik fanlarida realiyalar muammosi // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2015, №3 (7). — B. 119–122.
3. Азимов Е.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). — Санкт-Петербург: Златоуст, 1999. — 472 с.
4. Azimova N. Uzbek: an elementary textbook. — Georgetown University Press, 2010. — 502 p.
5. Асиллова Г.А. Национальные реалии узбекского языка: проблемы перевода и лингводидактики // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. — 2022. — Vol. 4 (1). — С. 25–37.

6. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимое в переводе. — Москва: Р. Валент, 2009. — 360 с.
7. Воронина Г.И. Организация работы с аутентичными текстами молодежной прессы в старших классах школ с углубленным изучением иностранного языка // Иностранные языки в школе. — 1999, №2. — С. 23–25.
8. Кричевская К.С. Прагматические материалы, знакомящие учеников с культурой и средой обитания жителей страны изучаемого языка // Иностранные языки в школе. — 1996, №1. — С. 13–17.
9. Little D., Devitt S., Singleton D. Authentic Texts in Foreign Language Teaching: Theory and Practice. — Dublin: Authentik, 1999.
10. Martinez A.G. Authentic Materials: An Overview. Free Resources for Teachers and Students of English. Karen's Linguistics Issues, 2002. — Pp. 1–7. — URL-1: <https://www.scirp.org/%28S%28lz5mqp453edsnp55rrgct55%29%29/reference/referencespapers.aspx?referenceid=2501731>
11. Носонович Е.В., Мильруд Р.П. Параметры аутентичного учебного текста // Иностранные языки в школе. — 1999, № 1. — С. 18–23.
12. Перунова А.В., Перунов М.В. О некоторых особенностях понятия аутентичные материалы // Психология, социология и педагогика. — 2017, №5. — URL: <https://psychology.snauka.ru/2017/05/8149>
13. Русча-ўзбекча луғат / 2 томли. — Тошкент: ЎзСЭБР, 1983. — Том I. — 308 б.
14. Sadiqov Z. Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasini. Monografiya. — Namangan: Vodiy media, 2021. — 120 b.
15. Harmer J. How to teach English. An introduction to the practice of English language teaching. — Edinburg: Gate Longman, 1998. — 198 p.
16. Widdowson H.G. Aspects of Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1990. — 213 p.

### References

1. Abdurahimov M.M. *O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha lug'at* (Uzbek-Russian and Russian-Uzbek dictionary), Tashkent: Fan, 1999, 643 p.
2. Agzamova D. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 2015, No. 3 (7), pp. 119–122.
3. Azimov E.G., Shchukin A.N. *Slovar' metodicheskikh terminov (teoriya i praktika prepodavaniya yazykov)* (Dictionary of methodological terms (theory and practice of language teaching)), Saint-Petersburg: Zlatoust, 1999, 472 p.
4. Azimova N. *Uzbek: an elementary textbook*, Georgetown University Press, 2010, 502 p.
5. Асиллова Г.А. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*, 2022, Vol. 4 (1), pp. 25–37.

6. Vlahov S.I., Florin S.P. *Neperevodimoe v perevode* (Untranslatable in translation), Moscow: R. Valent, 2009, 360 p.
7. Voronina G.I. *Inostrannye yazyki v shkole*, 1999, No. 2, pp. 23–25.
8. Krichevskaya K.S. *Inostrannye yazyki v shkole*, 1996, No.1, pp. 13–17.
9. Little D., Devitt S., Singleton D. *Authentic Texts in Foreign Language Teaching: Theory and Practice*, Dublin: Authentik, 1999.
10. Martinez A.G. *Authentic Materials: An Overview*. Free Resources for Teachers and Students of English. Karen's Linguistics Issues, 2002, pp. 1–7, available at: <https://www.scirp.org/%28S%28l%28z5mqp453edsnp55rrgjt55%29%29/reference/referencespapers.aspx?referenceid=2501731>
11. Nosonovich E.V., Mil'rud R.P. *Inostrannye yazyki v shkole*, 1999, No. 1, pp. 18–23.
12. Perunova A.V., Perunov M.V. *Psixhologiya, sotsiologiya i pedagogika*, 2017, No. 5, available at: <https://psychology.snauka.ru/2017/05/8149>
13. *Ruscha-uzbekcha lugat* (Russian-Uzbek dictionary), in two vol. Tashkent: UzSEBR, 1983, 308 p.
14. Sadiqov Z. *Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasi* (Translation of ancient Turkic realities), Namangan: Vodiy media, 2021, 120 p.
15. Harmer J. *How to teach English. An introduction to the practice of English language teaching*, Edinburg: Gate Longman, 1998, 198 p.
16. Widdowson H.G. *Aspects of Language Teaching*, Oxford: Oxford University Press, 1990, 213 p.